

MUHOFAZA ETILADIGAN TABIIY HUDUDLARDA O'TKAZILADIGAN BIOTEXNIK
TADBIRLARNING AMALIY AHAMIYATI

Masharipov Adamboy Atanazarovich – *UrDU, dotsent.*
Matnazarova Malohat Islombayevna – *UrDU talabasi,*
Atanazarov Suxrob Kadam o'gli - *UrDU talabasi.*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, ularning ahamiyati va mavsumdan tashqari qo'riqlanadigan hududlarda yashovchi hayvonlarni muhofaza qilish bo'yicha biotexnik tadbirlar haqida ma'lumot berilgan.*

Kalit so'zlar. *Milliy bog', qo'riqxon, biologik xilma-xillik, hayvonot dunyosi, biotexnik tadbirlar.*

Аннотация. *В данной статье приведены сведения об охраняемых природных территориях, их значении и биотехнических мероприятиях по охране животных, обитающих на охраняемых территориях, в межсезонье.*

Ключевые слова. *Национальный парк, заповедник, биоразнообразие, животный мир, биотехническая деятельность.*

Abstract. *This article provides information about protected natural areas, their significance and biotechnical measures for the protection of animals living in protected areas in the off-season.*

Keywords. *National park, reserve, biodiversity, wildlife, biotechnical activities.*

Tabiat – keng ma'noda butun borliq olam va uning xilma – xil shakllari; tor ma'noda kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish manbai bo'lgan atrof tabiiy muhit. Inson o'zining hayoti davomida butun borliqdan emas, balki uni o'rab turuvchi va uning ta'siri doirasida turgan atrof tabiiy muhitdan foydalanish mumkin.

So'ngi yillarda mamlakatimizda muhofaza etiladigan tabiiy hududlar (METH) tizimini rivojlantirish va ular maydonini xalqaro hujjatlar talablari darajasiga yetkazishning tashkiliy-uquqiy asoslari ishlab chiqildi hamda sohaning moliyaviy manbalari aniqlab berildi. Tizimni tartibga soluvchi qator qonun loyihalari ishlab chiqildi va takomillashtirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 10 ga yaqin farmon va qarorlari hamda Hukumatning maxsus dasturlari qabul qilindi va ular ijrosi bilan 5 ta yangi METHlarga asos solindi.

Mamlakatimizda olib borilgan ushbu yangicha yondashuvlar natijasida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar maydoni mamlakat umumiy maydonining 8,3 foiziga yetkazildi, vaholanki ushbu ko'rsatkich 2017 yilda 5,2 foizni tashkil etgan edi.

Shuningdek, Milliy bog' va ov xo'jaliklarida yovvoyi va noyob hayvonlarni muhofaza qilish va ob-xavoning noqulay sharoitida oziqlantirish maqsadida biotexnik tadbirlar olib borilmoqda. Jumladan, ov xo'jaliklarining bir qismida yer maydonlariga juxori, beda va boshqa turdaga ozuqabob o'simliklar ekilib yovvoyi hayvonlar oziqlanishi uchun qoldiriladi. milliy bog'larning ilmiy bo'limi tomonidan o'simlik va

hayvonot dunyosini o'rganish uchun bir qator ilmiy mavzularda amaliy ishlar olib borilmoqda.

Biotexnik tadbirlar deganda biologik resurslarni saqlash va ko'paytirish choralari tushuniladi. Biotexnika tadbirlarining yo'nalishi muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning umumiy vazifalari va ular to'g'risidagi qoidalarda nazarda tutilgan maqsad va vazifalarga qarab har bir hudud tomonidan alohida belgilanadi.

Biotexnik chora-tadbirlar tizimi ikkita asosiy yo'nalishni o'z ichiga oladi: hayvonlarning yashash joylari yoki uyalarida sharoitlarni yaxshilash orqali bioxilma-xillikni saqlash va ko'paytirish chora-tadbirlari hamda alohida turlarning tur tarkibi va sonini tartibga solish choralari.

Qo'riqxonalarining qo'riqlanma zonalar, majmua (landshaft) buyurtma qo'riqxonalar, tabiat bog'larining qo'riqxonalar zonalaridan boshqa zonalar hududida, buyurtma qo'riqxonalar va tabiat yodgorliklari hududida davlat ekologiya inspektorlari va METH larning xodimlari quyidagi biotexnik tadbirlarni amalga oshiradilar:

1. Suv qushlari uchun uya qutilarini tartibga solish va o'rnatish;
2. Qushlar uchun qushlar in qilishi uchun moslamalar barpo qilish, ularni tartibga solish va o'rnatish;
3. Tuyoqlilar uchun tuz yalash moslamalarini tashkil qilish va o'rnatish;
4. Tuzoqlar barpo qilish va ularga tuz qo'yish;
5. Qishda hayvonlar va quyonlarni ovqatlantirish uchun joylar qilish;
6. Qushlar uchun toshli maydonchalar va tuproqli maydonchalar barpo qilish;
7. Tuyoqli hayvonlarning qorli davrda harakatlanishi uchun yo'laklar, o'tish joylari, so'qmoqlar barpo qilish va saqlash;
8. O'rmon ekinlarini yoki boshqa hayvonlarning ozuqasi bo'lgan ekinlarni ekish;
9. Hayvonlarni boqish uchun pichan, terak, tol, majnuntol va boshqa daratlardan supurgi yig'ishtirib olish;
10. Suvloqlar barpo qilish va boshqalar.

Biotexnikaviy chora-tadbirlar kompleksi (oziqlantirish, naslni ko'paytirish va voyaga yetishi uchun qulay sharoitlar yaratish) hayvonlarning yashash muhiti va yashash sharoitlarini yaxshilash imkonini beradi.

Har yili qish faslida juda sovuq havo bo'lishi bilan biotexnik tadbirlar o'tkaziladi. Hayvonlarning izlaridan, qaerda ovqatlanishi mumkin bo'lgan joylarida jismoniy kuch yoki texnikalar orqali ma'lum joylarga ozuqa manbasi tashlanib boriladi. Lekin qo'riqxonalar misolida oladigan bo'lsak, qo'riqxonalar o'zining tabiiy muhitini saqlab qolish, hayvonlarning o'z-o'zidan ko'payishi va o'z-o'zidan kamayib ketish mumkin. Shuning uchun inson aralashuvi mumkin emas. Bizning qo'riqxonalarda tabiiy ozuqani topib olishi, hayvonlarning o'zlari oziq-ovqatlanishi uchun iloji boricha hayvonlar o'zi harakat qiladi.

Juda ham qattiq havo o'zgargan taqdirda tashqi tarafdin oziq-ovqat mahsulotlari berib turiladi. Lekin qo'riqxonalarda bu mumkin emas. Qo'riqxonamizdan tashqari

buyurtma qo'riqxonalarimiz bor. Bu joylarda hayvonlar oziqlanishi uchun yem-hashaklar tashlab boriladi. Qo'riqxonalarda esa bu mumkin emas. Chunki u tabiiy bo'lishi kerak, hayvon o'zi ko'payib, o'zi rivojlanishi kerak, o'simliklarni o'zi topib olishi kerak. Agar inson aralashuvi bo'lsa, hayvonlar kamayib ketishiga tashqi ta'sirga moslashuvi boshlanadi.

Biotexnikaviy chora-tadbirlar turlari va nima maqsadda amalga oshirilishiga bog'liq holda turli muddatlarda amalga oshiriladi.

Jumladan:

- Suvloqlar orqali hayvonlarni suv bilan ta'minlash – qurg'oqchilik yillarida;
- Tuzloqlarga tuz qo'yish – may-iyul oylarida;
- Hayvonlarni yem xashak bilan ta'minlash – hudud qalin qor bilan qoplangan davrda;
- Qushlarning bolalashi uchun inlar qilish – mart oyida.

Biotexnik ob'ektlarga raqam beriladi, joylashuv koordinatalari olinadi va xaritaga kiritiladi.

Shuningdek, yil davomida o'rnatilgan biotexnik ob'ektlarning nazorati, xatlovi, monitoringi (holatini tekshirish) amalga oshiriladi, zarur bo'lganda ta'mirlash ishlari olib boriladi.

Biotexnik tadbirlarni o'tkazish muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda hayvonot dunyosi holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Biotexnik chora-tadbirlar tufayli yovvoyi hayvonlarni tabiiy yashash joylarida bevosita ko'rish imkoniyati yaxshilanadi. Hayvonlar va qushlarni foto va video suratga olish uchun sharoitlar yaratiladi, ular yordamida tungi faol, ehtiyotkor hayvonlarni ham ko'rish imkoni yaratiladi.

Biotexnik ob'ektlar o'simlik dunyosi ob'ektlarining holatini yaxshilash maqsadlarida ham amalga oshirilishi mumkin.

METH lar oldida juda katta mas'uliyatli ishlarni amalga oshirish va bu vazifalarni bajarilishi, davlatimiz ravnaqi, uning ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik mavqeini rivojlantirishga o'z hissasini qo'shishi lozim, bu esa ekologik tizimning ham muvozanatini yaxshilaydi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ergashev A. "Umumiy ekologiya". –T. "O'qituvchi", 2003.
2. Ergashev A., Ergashev T. Ekologiya, biosfera va tabiatni muhofaza qilish. T., "Yangi asr avlodi". 2005.
3. Otaboev SH., Nabiev M. «Inson va biosfera» T. O'qituvchi. 1998.
4. Sultonov R.S. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish asoslari. T., "Musiqqa", 2007.
5. To'xtaev A.S. "Ekologiya va tabiat muhofazasi". T. "O'qituvchi" 1994.
6. To'xtaev A.S. "Ekologiya" T. "O'qituvchi". 1998.